# FARG’ONA VILOYATI FARG’ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2024 - yil 2 - iyul 215-11-169-Q/24 Farg‘ona shahar hokimligi

## Farg‘ona shahar “Ma’rifat” mahalla fuqarolar yig‘ini Oriyat ko‘chasiga 3.1 “Kirish taqiqlangan” taqiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son qarori ijrosi ta’minlash, Farg‘ona shahrida avtotransport vositalarining harakatini tartibga solish, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash va Farg‘ona shahar Oriyat ko‘chasida yashovchi fuqarolarning murojaatini inobatga olib, Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 31-maydagi 33/678-sonli xulosa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

**Q A R O R Q I L A M A N:**

**1.** Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlarini faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2024-yil 31-maydagi 33/678-sonli xulosa inobatga olinsin.

**2.** Farg‘ona shahrida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, transport vositalari harakatini tartibga solish, fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida Ma’rifat va Oriyat ko‘chasi chorraxasidan, Oriyat va Yuksalish ko‘chalari chorraxasigacha transport vositalar harakatini cheklash uchun Oriyat ko‘chasining kirish joylariga 3.1 “Kirish taqiqlangan” yo‘l belgisi amaldagi tartib bo‘yicha o‘rnatilsin.

**3.** Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dexqonov) hamda Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan birgalikda Farg‘ona shahar ko‘chalarida yo‘l belgisi

o‘rnatilishini tashkil etish hamda mazkur hududlarda avtomobillar harakati cheklanishini nazorat qilib borish vazifasi yuklansin.

**4.** Farg‘ona shahar hokimligi Axborot xizmati ushbu qaror bilan avtomobillar harakati cheklanayotgan ko‘chalar haqida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritish vazifasi topshirilsin.

**5.** Mazkur qaror ijrosini ta’minlash shahar hokimining o‘rinbosari J.Baxtiyorov va Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i A.Mirzaevlar zimmasiga yuklansin.

**Farg'ona shahar hokimi** **V.Nazarov**